



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ШИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб


Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Umurzok Alibekov, Alisher Abdumatov, Ismoiljon Rayimjonov XVIII-XIX ASRNING BIRINCHI YARIMIDA EKOMUHITDAGI O'ZGARISHLAR, SIYOSIY- IJTIMOIY ETNIK JARAYONLAR XUSUSIDA.....	5
2. Nodira Babadjanova MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK BARQARORLIK OMILI SIFATIDA.....	10
3. Дилмурод Бабожонов ХОРАЗМ ХОНЛИГИДА МАХФИЙ МАҲКАМА ФАОЛИЯТИ.....	16
4. Эргашали Эркаев ЎЗБЕКИСТОНДА БИРИНЧИ БЕШ ЙИЛЛИК ДАВРИДА ИРРИГАЦИЯНИ ТИКЛАШ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ (1928-1932 йиллар).....	27
5. С.И.Габриэльян ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУСТАФЫ КЕМАЛЯ АТАТЮРКА: ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЕ.....	32
6. Zebo Ismatullayeva O'ZBEKISTON VA GERMANIYA MUNOSABATLARIDA XALQ DIPLOMATIYASI O'RNI.....	43
7. Jaxongirbek Jonqobilov SURXONDARYO VILOYATIDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA PAXTACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI.....	50
8. Akmal Mengliboyev SOVET HOKIMYATI DAVRIDA SURXONDARYODAGI IJTIMOIIY QATLAMLARNING O'RNATILISHI: QATAG'ON VA JAMOALASHTIRISH SIYOSATINING TA'SIRI.....	55
9. Vafa Quliyeva, Qanira Pirkuliyeva THE ARAN-KARABAKH CARPET SCHOOL (the Karabakh School of carpet weaving).....	62
10. Ботиржон Тожибоев ҚИЗИЛ АРМИЯГА ҚАРШИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДАГИ ҚАРШИЛИК ХАРАКАТЛАРИ.....	70
11. Хулкар Холикулова ГЕНДЕР ТЕНГЛИК ВА АЁЛЛАР ҲУҚУҚЛАРИ: ЖАҲОН ҲАМЖАМИЯТИНИНГ ХАЛҚАРО ТАШАББУСЛАРИ.....	76
12. Бахтиёр Юлдашев, Гулсанам Тилавбаева “АНГРЕН – ПОП” ЭЛЕКТРЛАШТИРИЛГАН ТЕМИР ЙЎЛ ЛИНИЯСИ ҚУРИЛИШИ ВА УНИНГ МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТИМИЗДАГИ ЎРНИ.....	81



Jaxongirbek Normumin o'g'li Jonqobilov,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
mustaqil tadqiqotchi

SURXONDARYO VILOYATIDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA PAXTACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI

For citation: Jaxongirbek N.Jonqobilov. STATE POLICY ON THE DEVELOPMENT OF THE COTTON GROWING INDUSTRY IN SURKHANDARYA REGION IN THE POST-WORLD WAR II YEARS. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 5, pp.50-54

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15587266>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Surxon vohasining iqtisodiy taraqqiyotida sanoat xalq xo'jaligining muhim tarmog'i sifatida 1912-yilda qurilgan Surxondaryo viloyati birinchi paxta tozalash zavodi faoliyati haqida, uning 1950-yillardan boshlab ko'zga tashlana boshlaganligi, 1930-yillarda esa quvvati uncha katta bo'lmagan Denov va Hayrobod paxta tozalash zavodlarining barpo qilinganligini, hozirgi vaqtda viloyatda esa paxta tozalash sanoati tarkib topganligi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: paxta tolasi, kombinat, kon, Sherobod cho'llari, neft, og'ir sanoat, yengil sanoat, mashinasozlik sanoati, paxta tozalash sanoati.

Джахонгирбек Нормумин угли Жонқобилов,
Денауский институт предпринимательства и педагогики,
независимый исследователь

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО РАЗВИТИЮ ХЛОПКОВОДСТВА В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается о том, что в экономическом развитии Сурхандарьинского оазиса, особенно с 1950-х годов, промышленность стала важной отраслью народного хозяйства. Первый хлопкоочистительный завод в Сурхандарье был построен в 1912 году, а в 1930-х годах были построены Денауский и Хайрабадский хлопкоочистительные заводы, имевшие меньшую мощность. В настоящее время в регионе развивается хлопкоочистительная промышленность.

Ключевые слова: хлопок-волокно, комбинат, шахта, Шерабадская пустыня, нефть, тяжелая промышленность, легкая промышленность, машиностроение, хлопкоочистительная промышленность

Jaxongirbek N.Jonqobilov,Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy,
independent researcher**STATE POLICY ON THE DEVELOPMENT OF THE COTTON GROWING
INDUSTRY IN SURKHANDARYA REGION IN THE POST-WORLD WAR II YEARS****ABSTRACT**

In this article, we can learn about the fact that industry has become an important sector of the national economy in the economic development of the Surkhandarya oasis, especially since the 1950s. The first cotton ginning plant in Surkhandarya was built in 1912, and in the 1930s, the Denau and Khayrabod cotton ginning plants, which had a smaller capacity, were built. Currently, the regional cotton ginning industry is developing.

Index Terms: cotton fiber, combine, mine, Sherabad deserts, oil, heavy industry, light industry, machine building industry, cotton ginning industry

1. Dolzarbligi:

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekiston, Surxondaryo viloyati iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu sanoat paxtachilik qishloq xo‘jaligi sohasidagi yuqori o‘rinni egallab, mamlakat iqtisodiyoti va sanoat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi.

Surxondaryo viloyati iqlim sharoiti va unumdor yerlariga ko‘ra paxtachilik uchun qulay hududlardan biri hisoblanganligi sababli, bu yerda davlat ishlab chiqarish paxta ishlab chiqarish hajmini oshirish, paxta-to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, yangi sug‘orish tizimlarini ishlab chiqarish va ilg‘or agrotexnik vositalarni joriy etish natijasida keng ko‘lamli ishlab chiqarish amalga oshirildi.

2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Surxondaryo viloyatida ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda paxtachilik sanoatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosati ta‘siri hozirgacha maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Shuni hisobga olib, ushbu mavzuga oid tadqiqotlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1. Sovet davri tadqiqotlari; 2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan izlanishlar. Mavzuni yoritishda tarixiylik tamoyili asosida xronologik, ketma-ketlik, tizimli yondoshuv, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Sanoat industriyasi – xalq xo‘jaligining ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotiga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadigan sohadir. Aslida saonat o‘zi uchun, hamda xalq xo‘jaligining boshqa (birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi) sohalari uchun mehnat qurollari tayyorlaydigan, shuningdek xom ashyo materiallari, yoqilg‘i, energiya olish, mavjud sanoat yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalar (sex, zavod, fabrika, kombinat, kon, shaxta, elektr stansiyalari)ning majmuasidir.

Surxondaryoning iqtisodiy taraqqiyotida sanoat xalq xo‘jaligining muhim tarmog‘i sifatida ayniqsa, 1950-yillardan boshlab ko‘zga tashlana boshladi. Ungacha bu yerda sanoatning asosiy turlari ham tarkib topmagan edi. Masalan, qora yoki rangdor metallurgiya sanoati yoki mashinasozlik sanoatining bironta ham turi barpo qilinmagan edi. Boshqa barmoq bilan sanaladigan mavjud sanoat korxonalarini esa kichik, kam quvvat va texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlanmagan edi.

Viloyatda yuqorida zikr qilganimizdek, sanoat faqat 1950-yillarning oxiridan boshlab jadal rivojlanishning ilk bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu davrga kelib viloyatda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning obyektiv asoslari yaratilgan edi. Kon qidiruv ishlarini olib boorish va neft, ko‘mir, gaz, tuz qazib olishni yo‘lga qo‘yish, Sherobod cho‘llarini o‘zlashtirish orqali paxta yalpi hosili yetishtirishni kengaytirish va shu asosda paxtachilik sanoatini vujudga keltirish, yengil, oziq-ovqat sanoat korxonalarini har bir tuman hududida barpo qilish shu davrga to‘g‘ri keldi.

Surxondaryoda sanoat tarmoqlari qurulishining ilk bosqichida g'isht va ohak tayyorlash, don yanchish, paxta tolasi va yog' ishlab chiqarish sohalari rivojlantirilgan, asta-sekin kon sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoatining yirik korxonalari bunyod qilingan. Viloyatda birinchi paxta tozalash zavodi 1912-yilda Termizda qurilgan. Uncha katta bo'lmagan bu Termiz paxta tozalash zavodida 70 kishi ishlagan, uning ishlab chiqargan mahsulotining umumiy hajmi 1,9 million so'mni tashkil qilgan. 1927-yilda Termizda issiqlik elektr stansiyasi ishga tushirildi.

1929 – 1941 yillarda Denov, Hayrobod, Sherobod paxta tozalash zavodlari, Termiz shahrida go'sht kombinati, non va yog' zavodi, Denov shahrida motor ta'mirlash va vino zavodlari, viloyatning turli hududlarida "Hovdak", "Uchqizil", "Kokaydi" neft konlari ishga tushdi.

Viloyatda sanoat qurilishi 1940–1950-yillarda juda sekinlashdi. Uzoq davom etgan urush asorati natijasida mamlakatning iqtisodiy tangligi o'z kuchini ko'rsatdi. Faqat 1960-yillarning o'rtalaridan boshlab Sherobod cho'llarini o'zlashtirish, zamirida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish miqyosini oshirish bilan bog'liq ravishda viloyatda yengil sanoat (asosan paxta tolasi ishlab chiqarish), oziq-ovqat sanoati, yo'l qurilishi, irrigatsiya qurilishlari tez rivojlanib ketdi.

1971-yilda Qumqo'rg'on gidroelektr stansiyasi, Uzun, Jarqo'rg'on, Surxon, Sho'rchi, Angor va Muzrabod paxta tozalash zavodlari, Denovda yog'-ekstraksiya, konserva, pivo zavodlari, shakarqamish davlat xo'jaligi hududida rom zavodi, Sariosiyoda g'isht va mayda shag'al saralash zavodi, Qumqo'rg'on ta'mirlash-mexanika, temir-beton buyumlari zavodlari, Jarqo'rg'on yog'ochni qayta ishlovchi va silikat buyumlari zavodlari, «Lalmikor» neft koni va boshqalar qurildi. Sharg'unda ko'mir koni ishga tushdi va konning yonida ko'mirdan maishiy ehtiyojlar uchun va uni tashish-ortish ishlarini yengillashtirish maqsadida briket fabrikasi qurildi.

Shunday qilib, Surxondaryoda sanoat tarmoqlari asta-sekin tarkib topdi, uning viloyat uchun yangi sohalari vujudga keldi. Og'ir sanoat tarmoqlaridan yoqilg'i-energetika sanoati, mashinasozlik sanoatining ayrim tarmoqlari, qurilish materiallari sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlari barpo qilindi.

Yoqilg'i energetika sanoati. U 1950-yillardan boshlab viloyatda neft, gaz va keyinchalik ilk ko'mir qazib olish shakllandi, region sanoatning alohida tarmog'iga aylandi. Surxondaryo viloyatida neft va gaz konlari ko'p topilgan va ishga tushirilgan. Neft, gaz, ko'mir qazib olish miqdori yildan-yilga oshirilmoqda.

1990-yillarga kelib viloyatda yiliga 126-130 ming tonna neft, 220-240 ming tonna ko'mir va 17.545 ming kubometr tabiiy gaz qazib olindi. Ayniqsa, neft qazib olish geografiyasi kengayib bordi (uning yangi-yangi istiqbolli konlari va neft qazib olish hajmi o'sdi). Shunga qaramasdan viloyatda neftni qayta ishlash sanoati barpo qilingan emas edi. Qazib olingan neftning hammasi olis yurt – Farg'ona neftni qayta ishlash zavodiga jo'natilar edi. Bu narsa viloyatda neftni qayta ishlash orqali olinadigan o'nlarcha nomdagi yoqilg'i mahsulotlarining tannarxini oshirib yuborishiga sabab bo'lgan. Ikkinchidan esa viloyatning neft mahsulotlarga nisbatan ehtiyojini qondirishdagi g'ov hanuz bartaraf qilinmasdan kelgan.

Mashinasozlik sanoati butun sanoatning hamda iqtisodiyotning harakatlantiruvchi omillaridan biridir. Uning rivojlanishi regionlar ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanishi bilan teng. Ana shunday sanoatning yetakchi tarmog'i Surxondaryoda afsuski rivojlantirilmagan, balki uning ayrim sohalarigina shakllangan. Jumladan, Denov shahrida ko'p xil qishloq xo'jaligi mashinalarini, Termizda traktor motorlarini ta'mirlaydigan va ayrim qishloq xo'jaligi mashinalari qismlarini ishlab chiqaradigan zavodlar bor, xolos.

Qurilish materiallari sanoati. Uning rivojlanishi viloyat markazida, yirik shaharlarida, tuman markazlarida, yirik (yangidan barpo qilinayotgan) aholi qo'rg'oncha va manzilgohlarida kapital qurilishi darajasi va ko'lami bilan bog'liq.

Surxondaryoda qurilish industriyasini rivojlantirishning tabiiy geografik asosi: tabiiy toshlar, qum, ohaktosh, shag'al, gips va boshqalar bor. Viloyatning har bir tumanida bunyod qilingan g'isht zavodlari, shuningdek, ohak tayyorlash (Qumqo'rg'on, Oltinsoy), temir-beton tayyorlash (Termiz, Qumqo'rg'on, Surxon, Denov), marmarga sayqal berish (Konpurtepa), shag'al tayyorlash (Sariosiyo) sanoati korxonalari viloyat qurilish industriyasining gigantlaridir.

Viloyatda ayniqsa, kapital qurilishiga O‘zbekiston davlatining mustaqilligi sharofati bilan 1990-yillardan boshlab katta e‘tibor berilmoqda. Barcha ma‘muriy markazlarda uylarni sharqona usulda qayta qurish, ta‘mirlash, ko‘chalarni kengaytirish ishlari tezkorlik bilan amalga oshirilmoqda.

Viloyatda uysozlik rivojlanib bormoqda. Termiz shahrida ikkita uysozlik kombinati qurilib ishga tushirilgan. Ushbu kombinatlarda yig‘ma temir-betondan, og‘ir va yengil betondan qurilish detallari va konstruksiyalari tayyorlab berish texnologiyasi o‘zlashtirilgan. Regionda tarkib topayotgan qurilish materiallari sanoati xalq xo‘jaligining yirik, mexanizatsiyalashgan tarmog‘i bo‘lib, kapital qurilishga ko‘pgina materiallarni yetkazib bermoqda.

Yengil sanoat. U yengil va oziq-ovqat sanoatini o‘z ichiga oladi. Viloyatda yengil sanoatni har jihatdan rivojlantirish uchun ashyo, mehnat resursi va iqtisodiy shart-sharoitning bo‘lishiga qaramasdan u asosan bir tomonlama rivojlangan. Paxtani birlamchi ishlab chiqarish, ya‘ni paxta yalpi hosilidan paxta tolasi ishlab chiqarish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, xolos. Shuning uchun sanoatning ushbu tarmog‘i rivojlanishiga to‘xtalamiz.

Paxta tozalash sanoati. Viloyat paxta tozalash sanoati zamonaviy asbob-uskunalar bilan qurollangan va tobora rivojlanib borayotgan sanoat tarmog‘idir. Paxtani birlamchi qayta ishlash paxta tozalash zavodlarida amalga oshiriladi. Zavodda paxta yalpi hosilidan paxta tolasi, chigiti va lint ajratib olinadi.

Surxondaryoda birinchi paxta tozalash zavodi yuqorida qayd qilganimizdek, 1912-yilda qurilgan. 1930-yillarda esa quvvati uncha katta bo‘lmagan Denov va Hayrabod paxta tozalash zavodlari barpo qilindi. Hozirgi vaqtda viloyat paxta tozalash sanoati tarkib topgan. Uning tarkibida 11 ta qudratli 1 – 2 batareyalik paxta tozalash zavodlari va 45 ta paxta punkti bor. Viloyat paxta tozalash sanoati korxonalarining tola ishlab chiqarish quvvati 1994-yilda 132 ming tonnani tashkil qilgan, holbuki uning amaldagi quvvati 234 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarishga mo‘ljallangan.

Surxondaryo viloyat paxta tozalash zavodlarining tola ishlab chiqarish quvvati (tonna bilan)

№	Paxta tozalash zavodlari	Amaldagi tola ishlab chiqarish quvvati			Amalda ishlab chiqarilgan tola	
		Jami	shu jumladan		1984 yilda	1994 yilda
			arrali tozalash	valikli tozalash		
1	Termiz	17340	-	17340	12743	11043
2	Denov	28720	12620	16100	13923	15971
3	Hayrabod	21330	13370	7960	8884	8778
4	Uzun	27810	14430	13380	13941	13359
5	Sho‘rchi	13860	-	13860	11460	14735
6	Jarqo‘rg‘on	30230	12180	18050	12847	17578
7	Surxon	11140	-	11140	4598	3416
8	Muzrabod	18080	-	18080	10071	8728
9	Angor	13814	-	13814	8325	9247
10	Sherobod	34410	12140	22270	13986	17762
11	Qiziriq	17380	-	17380	7648	9044
Jami		234114	64740	169374	118499	131661

Mustaqillik sharofati bilan Surxondaryoda paxta tolasini ip-gazlamaga, gazlamani esa kiyim-kechakka aylantirish yuzasidan uzoq kelajakka mo‘ljallangan rejalar tuzilib, aniq ishlar qilindi. Asta-sekin viloyatning ayrim shaharlarida ip-gazlama (Jarqo‘rg‘on), trikotaj va tikuvchilik (Sariosiyo), poyabzal (Sho‘rchi), gilam (Oltinsoy, Uchqizil, Jarqo‘rg‘on va b.), ipak gazlama (Boysun) ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda.

Viloyat oziq-ovqat sanoati un va un mahsulotlari (Sho‘rchi), yog‘ va sut va sut mahsulotlari (Denov, Termiz), go‘sht va go‘sht mahsulotlari (Termiz), vino va vino materiallari, spirtli va

sharbatli ichimliklar (Denov, Oltinsoy), meva va va uzum konservalari va sharbatlari (Denov, Oltinsoy, Sariosiyo) ishlab chiqarishga ko'ra tez rivojlanib bormoqda. Oltinsoyda mohir tashkilotchi Omon Sariyevning tashabbusi bilan sabzavot va poliz ekinlari hosilini quritishga oid chet el texnologiyasi bilan jihozlangan zavod ishga tushgan. Ushbu zavod tamg'asi bilan tayyorlanayotgan qiymalanib quritilgan o'ta toza mahsulotlar mamlakatimiz oziq-ovqat sanoati korxonalarida yilning turli fasllarida keng iste'mol qilinmoqda.

4. Xulosa

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Surxondaryo viloyatida paxtachilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan davlat siyosati viloyat iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligining tiklanishida muhim rol o'ynaydi. Davlat qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, ishlab chiqarishni qayta ishlash va infratuzilmani rivojlantirish Surxondaryo viloyatining paxtachilik mahsulotlaridan biriga aylandi. Ushbu masala tahlili zamonaviy kunda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va agrar ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirish uchun muhim saboqlar beradi. Shu sababli, Surxondaryo viloyatida olib borilgan paxtachilik strategiyasini chuqur o'rganish milliy strategiyasi jarayonlarini rivojlantirish, balki agrar sohada samarali ishlab chiqarishni rivojlantirishda ham foyda kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Ro'ziyev A.N Surxon – Sherobod vodiysida paxtachilik. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1965 y., 36 bet
2. Истомина М.С. Освоение новых земель в Сурхандарьи // Социалистическое сельское хозяйство, 1954. №2. – С.8. (Istomin M.S. Osvoenie novykh zemel v Surkhandari // Sotsialisticheskoe selskoe hozyaystvo, 1954. №2. – P.8.)
3. Газета «Ленинское знамя». 3 июля, 1954. (Newspaper "Leninskoe znamya". July 3, 1954).
4. Лапасов А.Ч. Истиклол йўли: Ангор. – Термиз, 1992. –Б. 4–5. (Lapasov A.Ch. Istiklal Road: Angor. – Termiz, 1992).
5. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 45-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 16-варақ (State archive of Surkhondaryo region. Fund 45, list 1, case 26, sheet 16).
6. Венгский В. Ўзбекистонда пахтачиликнинг ривожланиши. – Тошкент. Ўзбекистон ССР сиёсий ва илмий билимлар тарқатиш жамияти. 1958. № 24-25. – Б. 7. (Vengrsky V. Development of cotton cultivation in Uzbekistan. Tashkent. Society for dissemination of political and scientific knowledge of the Uzbek SSR. 1958. No. 24-25. – P. 7).
7. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 45-фонд, 1-рўйхат, 41-иш, 4-5-варақлар (State archive of Surkhondaryo region. Fund 45, list 1, case 41, sheets 4-5).
8. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 580-фонд, 1-рўйхат, 25-иш, 17-варақ (State archive of Surkhondaryo region. Fund 580, list 1, case 25, sheet 17).
9. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 580-фонд, 1-рўйхат, 25-иш, 34-варақ (State archive of Surkhondaryo region. Fund 580, list 1, case 25, sheet 34).
10. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 580-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 37-варақ (State archive of Surkhondaryo region. Fund 580, list 1, case 26, sheet 37).
11. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 580-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 45-варақ (State archive of Surkhondaryo region. Fund 580, list 1, case 26, sheet 45).
12. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 580-фонд, 1-рўйхат, 28-иш, 58-варақ (State archive of Surkhondaryo region. Fund 580, list 1, case 28, sheet 58).

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 5

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000